

TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNING KASBIY YO'NALISHINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK SHAROITLARNI O'RGANISH.

Raximova Xilola Xamidovna

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishda pedagogik sharoitlarning o'rni va ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqotda kasbiy yo'nalish tushunchasining nazariy asoslari hamda uning shaxs rivojlanishidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim muhitining tashkiliy, metodik va psixologik jihatlari kasbiy yo'naltirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar sifatida yoritiladi. Pedagogik sharoitlarni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda kasbiy qiziqish va motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Maqolada kasb tanlashda individual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida kasbiy yo'naltirish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy yo'naltirish borasidagi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur maqola umumta'lim maktablari va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy yo'nalish, pedagogik sharoit, ta'lim jarayoni, shaxs rivoji, kasbga yo'naltirish, pedagogik faoliyat*

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri shaxsni ongli ravishda kelajak kasbiga yo'naltirish, uning qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olgan holda kasbiy o'zini-o'zi anglashini ta'minlashdan iboratdir. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash masalasi nafaqat shaxsning shaxsiy muvaffaqiyati, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon ta'lim muhitida to'g'ri tashkil etilgan pedagogik sharoitlarni talab etadi. Shu bois ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirish masalasi bugungi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Sharq mutafakkirlari ta'lim va kasb masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida insonning jamiyatdagi o'rni uning egallagan kasbi va jamiyat manfaatiga qo'shgan hissi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, shaxs o'z imkoniyatlariga mos faoliyat bilan shug'ullangandagina mukammallikka erishadi. Bu qarashlar bugungi kunda ham kasbiy yo'nalishning shaxs rivojidagi o'rnini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino ham yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularning tabiiy moyilliklari va aqliy salohiyatini inobatga olish zarurligini qayd etgan bo'lib, bu g'oyalar hozirgi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ham kasbiy yo'nalish masalasi keng o'rganilgan. Jumladan, E.A. Klimov kasb

tanlash jarayonini shaxsning uzoq muddatli psixologik rivojlanish jarayoni sifatida talqin etib, bu jarayon ta'lim muhitida tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozimligini asoslab beradi. Uning tadqiqotlarida kasbiy o'zini anglash shaxsning motivatsion sohasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Bu esa pedagogik sharoitlarni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish mumkinligini anglatadi. I.A. Zimnyaya pedagogik psixologiyaga oid ishlarida ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligini asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki o'quvchining hayotiy rejalari va kasbiy istiqbolini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mazkur yondashuv kasbiy yo'nalishni ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rishga asos bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, pedagogik sharoitlar nafaqat tashkiliy omillarni, balki psixologik muhit, metodik yondashuv va individual ishlash tizimini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham kasbiy yo'naltirish masalasi muhim ilmiy yo'nalish sifatida yoritilgan. Jumladan, D. Abdullaeva va R. Boymurodov o'z ishlarida ta'lim jarayonida kasbiy yo'nalishni shakllantirish pedagogning kasbiy mahorati, ta'lim mazmuni va o'quvchilarning individual xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, samarali pedagogik sharoitlar yaratilgan taqdirdagina o'quvchilarda ongli kasb tanlash ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa ta'lim jarayonida kasbiy yo'nalishning rejalashtirilgan va tizimli ravishda olib borilishini talab etadi.

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar ham tahlil qilinadi. Jumladan, kasbiy yo'naltirish ishlarining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, pedagoglarning bu boradagi metodik tayyorgarligining pastligi, shuningdek, o'quvchilarning individual qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash mexanizmlarining sustligi kabi masalalar ilmiy asosda yoritiladi. Ushbu muammolarni hal etishda pedagogik sharoitlarning ahamiyati alohida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada pedagogik sharoit tushunchasining mazmuni ochib berilib, uning tashkiliy, psixologik va metodik tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Ta'lim muhitida qulay pedagogik sharoitlarni yaratish orqali shaxsning kasbiy o'zini anglash jarayonini jadallashtirish mumkinligi asoslab beriladi. Bu jarayonda individual yondashuv, kasbiy maslahat, hamda o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan ta'lim metodlarining ahamiyati yoritiladi.

Mazkur maqola umumta'lim maktablari o'qituvchilari, kasbiy ta'lim muassasalari pedagoglari, metodistlar, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda ta'lim jarayonida kasbiy yo'naltirish masalalariga qiziqqan tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi hamda amaliy tavsiyalar berish orqali ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Asosiy qism:

Kasbiy yo'nalish shaxsning kelajakdagi mehnat faoliyatiga ongli munosabatini shakllantiruvchi murakkab va uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida kasbiy yo'nalish tushunchasi shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari hamda jamiyat talablari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan faoliyat sifatida talqin etiladi. E.A. Klimovning qarashlariga ko'ra, kasb tanlash bir martalik qaror emas, balki shaxs rivojining muhim bosqichlarida qayta-qayta aniqlashtirib boriladigan jarayondir. Shu sababli ta'lim jarayonida kasbiy yo'nalish epizodik tadbirlar bilan cheklanmasdan, tizimli pedagogik faoliyat sifatida tashkil etilishi zarur. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar kasb tanlash jarayonida tasodifiy omillarga, ya'ni ota-onaning istagi, atrofdagilarning fikri yoki ommaviy stereotiplarga tayanadilar. Bu esa kelgusida kasbiy qoniqmaslik, o'qishga qiziqishning pasayishi va hatto kasbni o'zgartirishga olib keladi. Demak, ta'lim muassasalarida kasbiy yo'nalishni shakllantirishning pedagogik sharoitlarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik sharoitlar tushunchasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omillar majmui sifatida izohlanadi. I.A. Zimnyaya pedagogik sharoitlarni tashkiliy, psixologik va metodik guruhlariga ajratadi. Ushbu tasnif kasbiy yo'nalishni shakllantirish jarayonini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tashkiliy pedagogik sharoitlar ta'lim muassasasida kasbiy yo'naltirish ishlarining rejalashtirilganligi, uzluksizligi va tizimlilikini anglatadi. Amaliyotda ko'pincha kasbiy yo'naltirish faqat bitiruvchi sinflar bilan cheklanib qolmoqda. Aslida esa bu jarayon boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinflarda kasblar haqidagi umumiy tasavvurlar, o'rta sinflarda qiziqishlarni aniqlash, yuqori sinflarda esa aniq kasbiy rejalashtirish ishlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Psixologik sharoitlar esa o'quvchining o'z imkoniyatlariga ishonchi, ichki motivatsiyasi va kasbiy o'zini anglash darajasi bilan bog'liq. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit shaxsning ichki salohiyatini ochishga yordam beradi. O'quvchining fikri tinglanadigan, xatosi uchun jazolanmaydigan, balki tahlil qilinadigan muhit kasbiy yo'nalishning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy yo'nalishni shakllantirishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar pedagogik sharoitlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tolipov va Usmonboevalarning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirishi, mustaqil fikrlash va o'z kelajagini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan. Amaliy tajribamda ham kasbiy yo'naltirish mashg'ulotlarida suhbat, munozara, rol o'yinlari va loyiha metodlaridan foydalanish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otganini kuzatganman. Masalan, "Bir kunlik mutaxassis" nomli kichik loyiha doirasida o'quvchilarga tanlagan kasbi bo'yicha bir kunlik faoliyat rejasini tuzish vazifasi berildi. Ushbu topshiriq natijasida ko'plab o'quvchilar o'z tanlovlariga tanqidiy yondashib, kasb tanlash

mas'uliyatini chuqurroq his qila boshladilar. Bu kabi metodlar kasbiy yo'nalishni faqat nazariy tushuncha emas, balki hayotiy reja sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Kasbiy yo'nalishning ahamiyatini ko'rsatishda qisqa pedagogik hikoyalardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Amaliyotda uchragan quyidagi holat bunga misol bo'la oladi. O'rta sinfda o'qiyotgan bir o'quvchi barcha fanlardan yaxshi baholarga ega bo'lsa-da, kelajak kasbi haqida aniq tasavvurga ega emas edi. U bilan individual suhbatlar va kasbiy testlar o'tkazilgach, uning tabiiy fanlarga, ayniqsa biologiyaga qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi. Natijada, maqsadli yo'naltirish orqali u o'z kelajagini tibbiyot sohasi bilan bog'lashga qaror qildi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, to'g'ri pedagogik yondashuv shaxs taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Pedagog shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishda yetakchi subyekt hisoblanadi. N.V. Kuzmina pedagog professionalizmini faqat bilim darajasi bilan emas, balki tarbiyaviy va yo'naltiruvchi faoliyati bilan ham baholash zarurligini ta'kidlaydi. Pedagog o'quvchini ma'lum bir kasbga majburlamasligi, balki unga tanlash imkoniyatini yaratib berishi lozim. Bu jarayonda pedagog maslahatchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolini bajaradi.

Amaliy tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, har bir sinf rahbari yoki fan o'qituvchisi o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha kuzatuv kundaligini yuritishi foydali bo'ladi. Bu ma'lumotlar asosida individual kasbiy maslahatlar berish mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchini chuqurroq tushunishga va unga mos pedagogik sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida kasbiy yo'nalishni shakllantirishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, metodik qo'llanmalar yetishmasligi, pedagoglarning kasbiy yo'naltirish bo'yicha maxsus tayyorgarligining pastligi va ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi shular jumlasidandir. Raximov S.N. o'z tadqiqotlarida kasbiy yo'naltirish samaradorligi ta'lim muassasasi va oila hamkorligiga bevosita bog'liq ekanligini asoslab beradi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun pedagoglar malakasini oshirish kurslarida kasbiy yo'naltirishga oid maxsus modullarni joriy etish, maktablarda kasbiy maslahat xonalarini tashkil etish va ota-onalar bilan muntazam seminarlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Mualliflik qarashimga ko'ra, kasbiy yo'nalish ta'lim jarayonining ikkinchi darajali vazifasi emas, balki uning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. O'quvchi maktabni nafaqat bilim bilan, balki o'z hayotiy yo'nalishini anglagan holda tark etishi kerak. Buning uchun pedagogik sharoitlar ongli ravishda loyihalaniishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirish pedagogik sharoitlarga bevosita bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri tashkil etish orqali jamiyat uchun raqobatbardosh, ongli va mas'uliyatli kadrlarni tayyorlash mumkin.

Xulosa:

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishda pedagogik sharoitlarning ahamiyati va roli chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muhit va metodik yondashuvlar o'quvchilarda kasbiy qiziqish, motivatsiya va mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Asosiy qismda keltirilgan tavsiyalar orqali maktablar va pedagoglar shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda kasbiy yo'naltirishni tizimli ravishda olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, individual yondashuv va o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan pedagogik metodlar samaradorligini oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar – pedagoglarning yetarli tayyorgarligi, metodik qo'llanmalar yetishmasligi va ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi – samarali yechimlarni ishlab chiqish imkonini berdi. Shu asosda, o'quvchilar uchun kasbiy maslahatlar, loyiha ishlari va psixologik qo'llab-quvvatlashning muhimligi ta'kidlandi.

Umuman olganda, maqola ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirishga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari nafaqat amaliy tavsiyalarni beradi, balki pedagogik sharoitlarni yaxshilash orqali o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva D. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Davlatov K. Kasbiy psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Ismoilova Z.K. Pedagogik sharoitlar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri. — Toshkent, 2020.
5. Xodjaev B.X. Shaxs va uning kasbiy rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 2016.
6. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. — Moskva: Logos, 2019.
7. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. — Moskva: Akademiya, 2018.
8. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. — Moskva: Znanie, 2017.
9. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya. — Sankt-Peterburg, 2016.
10. Raximov S.N. Kasbga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
11. Boymurodov R. Ta'lim jarayonida shaxsni kasbga yo'naltirish metodikasi. — Toshkent, 2019.
12. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. — Moskva: Eksmo, 2018.

13. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. — Moskva: Piter, 2017.
14. Shodiyev N.N. Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy yo'naltirish masalalari. — Toshkent, 2020.
15. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. — Toshkent, 2020.